

REFFERAT.

*Mavzu: Alisher Navoiyning
hayoti va ijodi.*

Bajardi: To'ychiyev R.
Ergashov J.
Tekshirdi: Usmonova L.

Toshkent -2015y.

Alisher Navoiynining hayoti va ijodi.

Hazrati Alisher Navoiy ijodi turkiy adabiyotining eng yuksak cho'qqisidir. Chunki hech kim unga qadar bu tilda bunchalik „ko'p va ho'p“ (Bobur) yozmagan edi. Aytish mumkinki, undan keyin salkam olti yuz yil ichida ham hech kim u kabi ko'p va yaxshi yozalgani yo'q. Navoiy barcha turkiy xalqlarning eng buyuk shoiridir. U o'zini „Xitodin to Xuroson“ gacha yoyilgan turkiy „qavm“ larning shoiri, deb bildi. Ularni bir adabiy til bayrog'i ostida birlashtirdi – „yakqalam“ qildi. Buyuk shoir Xurosonda, uning poytaxti Hirotida yashab ijod qildi. Navoiy yashagan davrda Xuroson va Mavorounnahr bir mamlakat bo'lib, taxt egasi ixtiyorida kelganligi va aholisining asosiy nufuzini turk xalqlari tashkil etkanligi ma'lum. Zahiriddin Muhammad Bobur Navoiy asarlarining „Andijon shevasi bila rost“ligini aytadi.

Bolalik davri. Alisher Navoiy 1441-yil 9-fevralda Amir Temurning o'g'li Shohruh Mirzo hukmronligi davrida Hirotida tug'ildi. Zamondoshlari uning haqida „Nizomiddin Mir Alisher“ deb yozadilar. „Nizomiddin“ – din-diyonat nizomi degani bo'lib, donishmand mansab egalariga beriladigan sifat, „Mir“ – Amir demakdir. Uning otasi G'iyosiddin Muhammad Tenuriylar saroyining amaldorlaridan edi. Uning onasi amirzoda Shayx Abusaid Changning qizi bo'lgan, ismi ma'lum emas. Alisherning bobosi Temurning o'g'li Umar Shayx bilan emikdosh bo'lgan ekan. Alisher kichiklik chog'ida saroy muhitida yashaganligi uchun alohida tarbiya va nazoratda bo'ldi. Uch-to'rt yoshligida davrning mashhur shoiri Qosim Anvorning kattalar ham tushinishi qiyin bo'lgan bir baytini yodlab hammani hayratga soldi. U bo'lajak sulton Husayn

Boyqaro bilan birga o'qidi. 1447-yili Shohruh vafot etib, Hirot notich bo'lib qoldi. Shunda Alisher va uning oilasi Iroqqa yo'l oladi. Alisherning xonadoni 1451-yili Hirotga qaytadi. 1452-yili Abulqosim Bobur Mirzo Xurson taxtiga o'tiradi. Alisherning otasi Sabzavorga hokim qilib tayinlanadi. 1453-yili Alisherning otasi G'iyosiddin Muhammad vafot etdi. Alisher esa Abulqosim Bobur hizmatiga o'tadi. Avval Sabzavorda, so'ng Mashhadga yashadi. Ikki maktabdosh do'st – Husayn va Alisher yana birga bo'ldilar. Bu yillar ham yosh Alisher uchun o'qish va bilm yillari bo'ldi. U yetti-sakkiz yoshida she'r yozgani ma'lum. Bu she'rlar shoirning aytishicha, „turk alfozi bila“ bitilgan. U forscha she'rlar ham yozdi. Turkey sh'rlariga „Navoiy“, forchasiga „Foniy“ taxallusini egallaydi. „Navo“ning bir ma'nosi – kuy, ohang, yana bir ma'nosi – bahr. Dard, g'amni ham „Navo“ deganlar. „Foniy“ esa o'tib ketuvchi, yo'q bo'luvchi, vaqtincha degani. Navoiy o'n besh yoshlarida o'z sherlari bilan zamonasining mashhur shoirlari diqqatini tortdi. Xondamirning yozishicha, she'rlari bilan endigina tanilib kela boshlagan Alisher o'z davrining dongdor shoiri mavlono Lutfiy huzurida o'zining:

Orazin yobqoch, ko'zindin sochilur har lahza yosh,

Bo'ylakim paydo bo'lur yulduz nihon bo'lg'och quyosh matla'si bilan boshlanadigan g'azalini o'qiydi. She'rdan hayratga tushgan keksa shoir shunday deydi: „Valloh, agar muyassar bo'lsa edi, o'zimning forsiy va turkiy tillarda aytgan o'n-o'n ikki ming baytimni shu g'zalga almashrdim va buni o'zimning yutug'im deb hisoblar edim“. Bu turkiy she'riyat buyuk iste'dod kirib kelayotgannidan nishona edi.

Yigitlik yillari. 1457-yilda Abulqosim Bobur Mirzo vafot etdi. Hokimyat tepasiga Abusaid Mirzo keldi. Husayn Bayqaro taxt uchun kurashga sho'ng'ib ketdi. Naavoiy esa, Mashhad madrasalarida o'qishini davom ettirdi. Shoir 1464-yilda Hirotga qaytadi. Biroq poytaxtda uni nohushliklar kutar edi. Abusaid Mirzo u bilan taxt tashlayotgan Husayn Boyqaroning yaqin kishilarini ta'qib va tazyiq ostiga olgan, jumladan, Alisherning

tog'alari Mirsaid Kobuliy va Muhammad Ali G'aribiylarni oldinma-keyin qatl ettirgan edi alisherning ota mulki musodara qilingan, hatto yashab turgani boshpana ham qolmagan edi. U jonajon shaxri Hirotda uzoq qololmadi. Holbuki, yosh shoirning ijodi avj pallaga kirgan, Jomiydek alloma bilan yaqindan tanishib, saboqlar olgan, mehrini qazongan edi. Navoiy "Nuran maxdum" deb e'zozlagan bu mashhur shoir va olim o'zini siyosatdan uzoq tutar, hatto shahar tashqarisidagi Sa'diddin Koshg'ariy (1456-yilda vafot etgan mashhur shayx, Jomiyning ustoz) mozori yonidan joy qilib o'sha yerda yashar edi.

Vatan va do'stlarni tashlab ketish og'ir. Xayrlashmay ketish undanda og'ir. Shoir ulug' do'stiga ketish sabablarini tushuntirmoqchi. Xat shu minosabat bilan yozilgan. Inson so'zi bilan ulug'dir, "falak jisminig joni" – so'z, ayniqsa "nazm", – deydi shoir. Va o'zida she'r yozishga juda katta kuch qudrat sezayotganini aytadi. Nizomiy Ganjaviyning 30 yil sarflab maydonga keltirgan "Xamsa"si uning uchun 2-3 yillik ishdir. Faqat unga imkon kerak. Yurt notinch, odamlarda vafo yo'q. Hatto, tasalli beruvchi kishi ham yo'q. Ketaman, desang etagingdan tutadigan umr yo'ldoshing, ketsang, ayriliqdan eziladigan do'sting bo'lmasa. Bu maktubdan ma'lumki, Navoiy 24-25 yoshlaridayoq "Xamsa" yaratishga har jihatdan tayyor ekanini bilgan. O'zining ijodiy kuchiga ishonchi katta bo'lgan.

Navoiy 60-yillarning ikkinchi yarmida Samarqantda yashadi. Shoir Samarqantda daslab moddiy qiyinchilikda hayot kechiradi. Keyinroq, unga shahar hokimi Ahmad Hojibek homiylik ko'rsatadi. Samarqant shoirining hayotida o'chmas iz qoldirdi. Zamon bo'ronlari har qancha to'zitmasin, shaharda olim-u fozillar hali ham ko'p edi. 1465–1466-yillarda muhlislari uning she'rlarini to'plab, o'zlari "Devon" tuzdilar. Bu kitob bugun "Ilk devon" nomi bilan mashhurdir.

El-u yurt xizmatida. Alisher Navoiy 1469–1472-yillarda muhrdor, 1472–1476-yillarda vazir bo'lib xizmat qildi. 1487–1488-yillarda Astrobodda hokimlik qildi. Husayn Bayqoro uni o'ziga g'oyat yaqin turar, har bir narsada u bilan maslahatlashar va shoirning fikrini nihoyatda qadrlar edi. To'g'ri, Boyqaro va Navoiy o'rtasiga sovuqlik tushgan paytlar ham bo'ladi. Lekin o'z davrining bu ikki buyuk arbobning do'stligi va hamkorligi juda ko'p sinovlardan muvaffaqiyat bilan o'tib, avlodlarga o'rnak bo'lib qoldi.

Navoiy 1476-yilda vazirlikdan bo'shagandan so'ng ham obodonlik ishlariga rahnomolik qilaverdi. Podshohning eng yaqin kishisi sifatida unga barcha ishlariga yordam berib turdi. Navoiy ilm va san'st ahlining homiysi, madatkori edi. Zahiriddin Muhammad Bobur yozadi: "Ahli fazl va ahli hunarg'a Alisherbekcha murabbiy va muqavviy (madadkor) ma'lum emaskim, hargiz paydo bo'lmish bo'lg'ay. Ustoz Qulmuhammad va Shayx Noyi va Husayn Udiykim, sozda saromad (mashhur) edilar, bekning tarbiyat va taqviyat (madad)i bilan muncha taraqqiy va shuhrat qildilar. Ustoz Behzod va Shoh Muzaffar tasvirda bekning sa'y (g'ayrat) va imom (himmat)i bilan mundoq mashhur va ma'ruf (ma'lum) bo'ldilar..."

Ijod og'ushida. Alisher Navoiy she'rni, shoirlikni hamma narsadan baland tutdi. Vazirlik martabasida turib ham she'r yozishni to'xtatmadi. Ulug' shoirning ikki she'riy devonini muxlislari tuzgan bo'lsalar, "Badoye ul-bidoya" ("Badiiylik ibtidosi") nomli devonini 1472–1476-yillarda sultonning amiriga ko'ra, shoirning o'zi kitob qildi. 1485–1486-yillarda ikkinchi devon "Navodir un-nihoya" ("Nihoyasiz nodirliklar") maydonga keldi. Navoiyning eng katta orzusi yirik dostonlar yozish, birinchi navbatda, XII asrning buyuk shoiri Nizomiy Ganjaviy (1141–1209)dan keyin shoirlik qudratining mezoniga aylanib qolgan "Xamsa" yaratish edi.

Navoiy "Xamsa" yozish niyati to'g'risidaustoz Abdurahmon Jomiy bilan maslahatlashganda, u Navoiyni bu ishga tezlikda kiritishga undaydi. Shoir ustozidan oq fotiha olib, og'ir, mashaqqatli ishga kirishadi. Nizomiy bilan bellanishish – uning panjasiga panja urish ("Xamsa"sig "Xamsa" bilan javob qilish) maqsadida maydonga kirish ulkan

jasorat talab qilardi. Sherga yuzma-yuz bo'lish uchun sher bo'lmaganda ham yo'lbars bo'lmoq lozim edi:

Emas oson bu maydon ichra turmoq,
Nizomiy panjasiga panja urmoq.
Kerak sher oldida ham sheri jangi,
Agar sher o'lmasa, bori palangi.

Navoiy besh dostonni ikki yilda yozib tamomlaydi. "Xamsa" yaratishga 1483-yilda kirishgan shoir 1485-yil boshida uni tugatadi. Agar shoir ishlagan kunlarigina hisobga olinsa 54 ming misralik ulkan asar olti oyda bitkazilganligi malum bo'ladi. Shu tariqa, tukiyl tildagi birinchi "Xamsa" yaratildi.

Husayn Boyqaro Navoiy tomonidan bir vaqtlar Sayyit Hasan Ardasherga yozilgan she'riy maktubdagi gaplarini shunchaki bir "xomayi gazof" (shoirona gap) deb o'ylagan edi. Shoir sultonga "Xamsa"ni taqdim etganida, u g'oyat qattiq hayajonga tushadi. Zayniddin Vosifyning "Badoye' ul-vaqoye" asarida yozilishicha: "Shoh Navoiyga: Bir mojaro Siz bilan bizning oramizda ko'pdan hal bo'lmay keladi, shuni bugun bir yoqlik qilaylik, deydi. Bu mojaro shundan iborat ediki, Sulton Husayn Alisherning muridi bo'lishni orzu qilardi va uni "pirim" deb atardi. Alisher esa har gal: "Yo Alloh, yo Alloh, bu qanday gap bo'ldi! Aslida, biz muridmiz, siz hammamizga pirsiz" – der edi. Endi Sulton Husayn Alisherdan so'radi: "Pir nima-yu, murid nima?" Shunda Alisher javob berdi: "Pirning tilagi – muridning tilagi bo'lishi kerak". Sulton Husayn o'zining oq otini olib kelishni buyurdi. Ot juda asov, chopag'on edi. Sulton Husayn aytdi: "Siz murid, men pir bo'lsam, siz shu otga minasiz, men uni yetaklayman". Alisher otga minadi. Ot g'oyat asov bo'lib, shohdan o'zgani yaqinlashtirmas edi. Alisher oyog'ini uzangiga qo'yishi bilan ot tipirchilay boshladi. Sulton Husayn otiga o'shqirdi, ot itoat qilib, Alisherning minishini kutdi. Alisher egarga o'tirishi bilan Husayn otning jilovidan ushlab, yetaklay boshladi. Alisher hushdan ketdi. Uni egardan ko'tarib oldilar." Tarixda bunday hol ko'rilmagan edi.

Hayotining so'nggi yillari. 1989-yilda Navoiyga Hirotga qaytgach, Astrobod hokimi qilib Badiuzzamon tayinlangan edi. Bu orada Balxda Darveshali qo'zg'oloni bashlanadi. Husayn Boyqaro Navoiyni olib, Balxga jo'naydi. Darveshali bilan sulh tuziladi, lekin Hisorda Abusaidning o'g'li Sulton Mahmud Husayn Boyqaroga qarshi kurash boshlaydi. Shoh Navoiyni Balxda qoldirib, o'g'li Badiuzzamonni olib, Hisorga o'tlanadi. U bilan ham murosaga kelishib, orqaga qaytadi va Balxni Badiuzzamon tasarrufiga beradi. Badiuzzamon o'n uch yoshli o'g'li Mo'min Mirzoni Astrobodda qoldirib, Balxga keladi. Xadichabegim Nizomulmulk bilan birgalikda Astrobodga Muzaffar Mirzoni hokim qilib tayinlashga erishadilar. Xadichabegim shohning mastlik chog'ida unga imzo qo'ydirib, tezlikda farmonni ijro ettirib yuboradi. Shoh hushiga kelib, yangi farmon jo'natganida jallod Mo'min Mirzoning boshini kesib ulguradi. Bu voqea 1497-yilning sentabrida yuz bergan edi.

1500-yil dekabrning oxirida Husayn Boyqaro Astrobod yurishidan qaytar edi. An'anaga ko'ra, saroyning barcha e'tiborli kishilari shohni kutib olishga yo'lga chiqadilar. Ular orsida Alisher Navoiy ham bor edi. Sog'lig'i yomonlashganiga qaramay, shoir safardan qaytgan sulton huzuriga yetib keldi va hamrohlari yordamida uning ko'ksiga bosh qo'yib, hushidan ketadi. Shu ahvolda yarim tunda uni uyga olib ketadilar. Ertasiga mashhur tabiblar maslahatga to'planib, qon olmoqqa qaror beradilar. Ammo buni foydasi bo'lmaydi. Uch kun hushsiz yotgan Alisher Navoiy 1501-yilning 3-yanvarida vafot etadi. Butun xalq: shohdan gadogacha, olimdan cho'pongacha, shoirdan dehqongacha ulug' farzandning o'limiga qayg'u va izzat bilan motam tutadi.

RUBOIYLAR

G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish,
El anga shafiq-u mehribon bo'lmas emish.
Oltun qafas ichra gar qizil gul butsa,
Bulbulga tikondek oshyon bo'lmas emish.

* * *

Zohid, senga – hur, manga – jonona kerak,
Jannat – sega bo'lsun, manga – mayxona kerak.
Mayxona aro soqiy-u paymona kerak,
Paymona necha bo'lsa to'la, yona kerak.

TUYUQLAR

Yo rab, ul shaxd-u shakar yo labdurur,
Yo magar shaxd-u shakar yolabdurur.
Jonima payvasta novak otqali,
G'amza o'qin qoshig'a yolabdurur.

* * *

Yo qoshingdin necha bir o'q ko'z tutay,
Otki, o'trusig'a oning ko'z tutay.
Necha ko'rgach o'zga mahvashlar qoshin,
Yangi oy ko'rgan kishidek ko'z tutay.

G'azallar

Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulro kelmadi,
Ko'zlarimga kecha tong otquncha uyqu kelmadi.

Lahza-lahza chiqtim yo'lida intizor,
Keldi jon og'zimga-yu ul sho'xu badxo' kelmadi.

Orazidek oydin erkonda gar etti ehtiyot,
Ro'zg'orimdek ham o'lg'onda qorong'u kelmadi.

Ul parvarish hajridinkim yig'ladim devonavor,
Kimsa bormukim, anga ko'rganda kulgu kelmadi.

Ko'zlaringdin necha suv kelgay, deb o'lturmang meni,
Kim bori qon erdi kelgan, bu kecha suv kelmadi.

Tolibi sodiq topilmas, yo'qsa kim qo'ydi qadam,
Yo'lg'akim, avval qadam ma'shuqa o'tru kelmadi.

Ey Navoiy, boda birla xurram et ko'ngling uyin,
Ne uchunkim, boda kelgan uyga qayg'u kelmadi.